

MYSTICAL AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF TIME AND MOMENT IN THE TEACHINGS OF IBN

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi

Lecturer, Department of Foreign Language and
Social Sciences, Asian International University

e.pochta:mohlaroyimyarashova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-1028-1763> tel:998905122307

Abstract

This article examines Ibn Arabi's philosophical and mystical views on the concepts of time and moment. Based on his treatise "Risalat al-Waqt wa al-An", the ontological and epistemological dimensions of time are analyzed. Particular attention is paid to the understanding of time as a sphere of divine manifestation, its relationship with the stages of the spiritual development of the murid, and the Sufi interpretation of the past, present, and future. Furthermore, Ibn Arabi's conception of time is explored in relation to the categories of movement, change, and being, highlighting its significance in the development of Islamic philosophy and Sufi metaphysics.

Keywords: Ibn Arabi, time, moment, Sufism, Islamic philosophy, wahdat al-wujud, mashhad, barzakh, divine manifestation, murid, spiritual perfection, ontology, being, movement, change.

Introduction

IBN ARABIY TA'LIMOTIDA VAQT VA ON TUSHUNCHALARINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TALQINI

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi

Osiyo xalqaro universiteti Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
e.pochta:mohlaroyimyarashova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-1028-1763> tel:998905122307

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutasavvif va faylasuf Ibn Arabiyning vaqt va on haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Xususan, uning “Risolatul vaqt val on” asarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida vaqtning ontologik va gnoseologik mohiyati yoritilgan. Tadqiqotda vaqtning ilohiy tajalliylar maydoni sifatidagi mazmuni, muridning ma’naviy kamolot bosqichlari bilan bog‘liqligi hamda o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakning tasavvufiy talqini ochib berilgan. Shuningdek, Ibn Arabiyning vaqt haqidagi qarashlari harakat, o‘zgarish va borliq kategoriyalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinib, ularning islom falsafasi va tasavvuf tafakkuri rivojidadagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ibn Arabiy, vaqt, on, tasavvuf, islom falsafasi, vahdat ul-vujud, mashhad, barzax, tajalliy, murid, ma’naviy kamolot, ontologiya, borliq.

Аннотация:

В данной статье анализируются взгляды великого суфийского мыслителя и философа Ибн Араби на время и мгновение. На основе его произведения «Рисалат ал-Вакт ва ал-Ан» раскрывается онтологическая и гносеологическая сущность времени. Особое внимание уделяется пониманию времени как пространства божественных проявлений, его связи с этапами духовного совершенствования мюрида, а также суфийской интерпретации прошлого, настоящего и будущего. Кроме того, концепция времени Ибн Араби рассматривается во взаимосвязи с категориями движения, изменения и бытия, что позволяет определить её место в развитии исламской философии и суфийской мысли.

Ключевые слова: Ибн Араби, время, мгновение, суфизм, исламская философия, вахдат аль-вуджуд, машхад, барзах, таджаллий, мюрид, духовное совершенствование, онтология, бытие, движение, изменение.

Kirish

Islom falsafasi va tasavvuf tarixida vaqt masalasi inson va borliq munosabatlarini anglashdagi eng muhim falsafiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasavvuf ta’limotida vaqt nafaqat fizik hodisa, balki insonning ruhiy holati va ilohiy haqiqatni idrok etish darajasi bilan bog‘liq metafizik voqelik sifatida talqin

qilinadi. XII–XIII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkir Ibn Arabiy vaqt va on tushunchalariga yangicha mazmun bergan allomalardan biridir. Uning “Risolatul vaqt val on” asari tasavvuf metafizikasida vaqt muammosini tadqiq etishga bagʻishlangan muhim manbalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Ibn Arabiyning vaqt haqidagi qarashlarini falsafiy va tasavvufiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning zamonaviy falsafiy tafakkurdagi oʻrnini aniqlashdan iborat.

Ibn Arabiyning vaqt haqidagi qarashlari islom falsafasi va tasavvuf tafakkurida alohida oʻrin tutadi. Uning **“Risolatul vaqt val on”** (“Vaqt va on toʻgʻrisida risola”) asari hajm jihatidan kichik boʻlsa-da, mazmunan chuqur metafizik va irfoniy gʻoyalarni oʻzida mujassamlashtirgan. Asarda vaqt kategoriyasi faqat fizik yoki astronomik hodisa sifatida emas, balki insonning ruhiy kamoloti va Haqqa yaqinlashuv jarayoni bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ontologik voqelik sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida tarixiylik, qiyosiy tahlil, germeneytik yondashuv, mantiqiy tahlil hamda falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Ibn Arabiyning “Risolatul vaqt val on” asari asosiy manba sifatida oʻrganilib, uning qarashlari tasavvuf ontologiyasi va islom falsafasi kontekstida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tarixiylik, qiyosiy tahlil, germeneytik yondashuv, mantiqiy tahlil hamda falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Ibn Arabiyning “Risolatul vaqt val on” asari asosiy manba sifatida oʻrganilib, uning qarashlari tasavvuf ontologiyasi va islom falsafasi kontekstida tahlil qilindi.

Ibn Arabiy taʼlimotida vaqt (**al-vaqt**) tashqi dunyoda mavjud boʻlgan obyektiv oʻlchovdan koʻra, insonning maʼnaviy holati va ruhiy maqomi bilan belgilanuvchi ichki voqelik hisoblanadi. Shu maʼnoda vaqt insonning Alloh bilan boʻlgan munosabatining ifodasi sifatida namoyon boʻladi. Mutafakkirning fikricha, vaqt yagona haqiqat boʻlsa-da, uning idrok qilinishi insonning ruhiy maqomlari oʻzgarishiga qarab turlicha kechadi. Bu qarash vaqtning nisbiyligi haqidagi zamonaviy falsafiy gʻoyalar bilan ham muayyan maʼnoda uygʻunlik kasb etadi.

Ibn Arabiy shunday yozadi:

“Va qad kashafa lana al-Haqqu fi al-vaqti amran jalilan, inna al-vaqta vahid al-mashhad, lakinnahu yaxtalifu bixtilafi al-maqomat, val-maqsudu huna zikru vaqti al-muridi as-sodiq, fahuwa barzaxun bayna al-jalali val-jamal.”

Ya’ni: *“Bizga kashf bo’ldiki, vaqt juda buyuk haqiqatlardan biridir. Vaqt bir mushohada va ko’rinishdir, ammo u maqomlarning o’zgarishi bilan o’zgarib turadi. Bu yerda esa so’z sodiq muridning vaqti haqida ketmoqda. U Allohning jaloli va jamoli o’rtasidagi barzaxdir.”*

Mazkur fikrda vaqtning metafizik mohiyati ochib berilgan. Ibn Arabiy vaqtni **“mashhad”**, ya’ni ilohiy haqiqatning inson qalbida namoyon bo’lish sahnasi sifatida tushuntiradi. Bu yerda vaqt harakat yoki davomiylik emas, balki Haqning tajallisi yuz beradigan ruhiy holatdir. Shuning uchun ham vaqt har bir inson uchun bir xil emas; uning mazmuni insonning ma’rifiy darajasi va ruhiy kamolotiga qarab shakllanadi.

Natijalar

Ibn Arabiy ta’limotida vaqt oddiy astronomik yoki fizik hodisa emas, balki ilohiy tajalliylarning namoyon bo’lish shaklidir. Mutafakkir “vaqt bir mashhad”, ya’ni ilohiy haqiqatning kuzatilish maydoni ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, vaqt yagona mohiyatga ega bo’lsa-da, insonning ruhiy maqomlari o’zgarishi bilan uni idrok etish shakllari ham o’zgaradi.

Mutafakkir sodiq muridning vaqtini **“jalol”** va **“jamol”** orasidagi barzax sifatida ta’riflaydi. Tasavvufiy istilohda jalol Allohning qudrat, haybat va buyuklik sifatlarini, jamol esa rahmat, muhabbat va latofat sifatlarini anglatadi. Barzax esa ikki voqelikni bog’lovchi va bir vaqtning o’zida ularni ajratib turuvchi vosita hisoblanadi. Demak, muridning vaqti ilohiy qudrat va ilohiy muhabbat o’rtasidagi muvozanat nuqtasi bo’lib, inson ana shu holatda ruhiy kamolotga erishadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, Ibn Arabiy vaqtni chiziqli tarixiy jarayon sifatida emas, balki doimiy yangilanib turuvchi **“hozirgi on”** sifatida tushunadi. Uning nazariyasiga ko’ra, inson haqiqiy borliq bilan aynan shu on orqali uchrashadi. O’tmish xotirada, kelajak esa ehtimol shaklida mavjud bo’lsa, haqiqiy voqelik faqat hozirgi lahzada namoyon bo’ladi. Shu sababli tasavvufda **“ibn al-vaqt”** – “vaqt farzandi” tushunchasi shakllangan bo’lib, orif inson har bir onni Haqning tajallisi sifatida qabul qilishi lozim.

Ibn Arabiyning mazkur qarashlari uning **“Vahdat ul-vujud”** ta’limoti bilan ham uzviy bog‘liqdir. Chunki vaqt ham, makon ham mutlaq mustaqil voqelik emas, balki ilohiy borliqning turli ko‘rinishlari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan vaqt insonning Allohga yaqinlashuv jarayonini ifodalovchi ma’naviy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Bu esa vaqtni faqat fizik-matematik tushuncha emas, balki insonning ichki dunyosi, ma’naviy tajribasi va irfoniy kamoloti bilan bog‘liq murakkab falsafiy hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Mutasavvif Ibn Arabiy vaqtning mohiyatini tushuntirar ekan, uni oddiy fizik o‘lchov yoki astronomik hodisa sifatida emas, balki insonning ruhiy tajribasi va ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ontologik voqelik sifatida talqin qiladi. U “Vaqt bu bir mashhaddir”, ya’ni vaqt ilohiy haqiqatlarning namoyon bo‘lish maydoni va kuzatish sahnasidir, degan fikrni ilgari suradi. Bunda vaqt yagona voqelik bo‘lishiga qaramay, uning mazmuni va idrok etilishi insonning ruhiy maqomlari o‘zgarishi bilan birga o‘zgarib boradi. Shu sababli Ibn Arabiy vaqtni mutlaq va o‘zgarmas hodisa sifatida emas, balki insonning ma’naviy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda namoyon bo‘luvchi nisbiy voqelik sifatida tushuntiradi.

Mazkur qarash falsafadagi harakat va o‘zgarish haqidagi nazariyalar bilan hamohangdir. Falsafiy adabiyotlarda harakat materiyaning mavjudlik usuli sifatida talqin qilinadi. Olamdagi barcha jarayonlar, hodisalar va rivojlanishlar harakat orqali yuz beradi. O‘zgarish esa harakatning konkret ko‘rinishi hisoblanadi. Har qanday moddiy jism yoki ma’naviy hodisa doimiy ravishda o‘zgarish va rivojlanish jarayonida mavjud bo‘ladi. Demak, borliqning mavjudligi harakat va o‘zgarish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhokama

Ibn Arabiy ushbu umumfalsafiy tamoyilni insonning ma’naviy kamoloti bilan bog‘laydi. Uning fikricha, inson ruhiy poklanish va ma’rifiy yuksalish sari intilgan sari vaqtni idrok etish darajasi ham o‘zgarib boradi. Oddiy inson uchun vaqt ketma-ket sodir bo‘layotgan hodisalar yig‘indisi bo‘lsa, orif va komil inson uchun vaqt ilohiy tajalliylarning ketma-ket namoyon bo‘lishidir. Shuning uchun ham har bir maqomda vaqtning mazmuni yangicha ochiladi. Bu holat tasavvufdagi “har bir nafas yangi tajalliydir” degan g‘oya bilan hamohangdir.

Ibn Arabiy “Bu joyda esa maqsad muridning vaqti to‘g‘risida” deya ta’kidlar ekan, insonni turli tashqi va begona g‘oyalarga chalg‘imaslikka, o‘zining ichki

ruhiy holatini kuzatishga chorlaydi. Tasavvufda muridning vazifasi o'tgan zamon afsuslari yoki kelajak tashvishlari bilan emas, ayni damdagi ilohiy huzur bilan yashashdan iboratdir. Shu sababli mutasavviflar "ibn al-vaqt" – "vaqt farzandi" tushunchasini ilgari surganlar. Bu tushunchaga ko'ra, haqiqiy orif o'zining butun e'tiborini hozirgi lahzaga qaratadi va aynan shu lahzada Haqning tajallisini mushohada qiladi.

Ibn Arabiy vaqtning tabiati haqida fikr yuritarkan, uni kecha va kunduzning almashinuvi, falaklarning harakati, oy va yil kabi astronomik hodisalar bilan ham bog'laydi. Biroq u ushbu hodisalarni vaqtning asl mohiyati emas, balki uning tashqi ko'rinishlari deb hisoblaydi. Mutasavvif shunday yozadi: "Ma'lum bo'lsinki, kecha va kunduz, kun, oy va yil kabi tushunchalar soatlar deb ataluvchi vaqtlardan iboratdir. Aslida bularning barchasi aynan mavjud emas, ular nisbiy mansublik va izofalardir".

Mazkur fikr Ibn Arabiyning vaqt haqidagi metafizik qarashlarining muhim jihatini ochib beradi. Uning nazarida kun, oy yoki yil mustaqil mavjudlikka ega bo'lgan obyektlar emas, balki inson tafakkuri tomonidan yaratilgan nisbiy tushunchalardir. Ular osmon jismlarining harakati natijasida hosil bo'lgan shartli o'lov birliklari bo'lib, vaqtning haqiqiy mohiyatini to'liq ifodalay olmaydi. Bu jihatdan Ibn Arabiy qarashlari zamonaviy fenomenologik va ekzistensial falsafadagi vaqtning subyektiv idroki haqidagi g'oyalarga yaqinlashadi.

Mutafakkir ta'limotida o'tmish va kelajak ham mustaqil voqelik sifatida emas, balki "on" tushunchasi orqali talqin qilinadi. O'tmish xotira shaklida, kelajak esa imkoniyat va ehtimol shaklida mavjuddir. Haqiqiy borliq esa faqat hozirgi onda mujassam bo'ladi. Shu sababli insonning Haq bilan uchrashuvi ham aynan hozirgi lahzada sodir bo'ladi. O'tgan zamon qaytmaydi, kelajak esa hali mavjud emas, mavjud bo'lgan yagona voqelik hozirgi ondir.

Ibn Arabiy nazarida har bir on ilohiy yaratish jarayonining yangi bosqichidir. Allohning tajallisi har lahzada yangilanib turadi va borliq ham doimiy ravishda yangidan yaratiladi. Shu bois vaqt oddiy ketma-ketlik emas, balki ilohiy ijodning uzluksiz davom etuvchi jarayoni hisoblanadi. Bu g'oya Qur'ondagi "U har kuni bir ishda" (Ar-Rahmon, 29) oyatining tasavvufiy talqini bilan ham bog'lanadi.

Xulosa

Qilib aytganda, Ibn Arabiy vaqtni astronomik yoki fizik hodisa sifatida emas, balki insonning ruhiy kamoloti, ilohiy tajalliylar va borliqning doimiy

yangilanishi bilan bog‘liq metafizik kategoriya sifatida talqin qiladi. Uning qarashlarida vaqtning haqiqiy mohiyati harakat va o‘zgarish orqali namoyon bo‘lib, insonning ma’naviy darajasi yuksalgan sari vaqt haqidagi tasavvuri ham chuqurlashib boradi. Shu jihatdan Ibn Arabiyning vaqt haqidagi ta’limoti tasavvuf ontologiyasi, islom falsafasi va zamonaviy vaqt falsafasining muhim nazariy manbalaridan biri sifatida katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ibn Arabiy ta’limotida vaqt kategoriyasi borliqning tashqi shakli emas, balki inson va Haq o‘rtasidagi ruhiy muloqot maydoni sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, vaqtning haqiqiy mohiyati insonning ma’naviy maqomiga bog‘liq bo‘lib, har bir lahza Allohning yangi tajallisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Ibn Arabiyning vaqt haqidagi qarashlari islom falsafasi, tasavvuf ontologiyasi va zamonaviy fenomenologik yondashuvlarning muhim nazariy manbalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ibn Arabiy. Risolatul vaqt val on. Qohira: Dor al-kutub, 2006.
2. Ibn Arabiy. Al-Futuh al-Makkiyya. Bayrut: Dor Sadr, 1999.
3. Abu Hamid al-Ghazali. Ihyo ulum ad-din. Bayrut: Dor al-Ma’rifa, 2005.
4. William Chittick. The Sufi Path of Knowledge. Albany: SUNY Press, 1989.
5. Seyyed Hossein Nasr. Three Muslim Sages. Chicago: Kazi Publications, 1997.
6. Martin Heidegger. Being and Time. Oxford: Blackwell, 1962.
7. Henri Bergson. Time and Free Will. London: George Allen & Unwin, 1910.
8. Jo‘rayev N. Falsafa tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
9. Shermuhamedov A. Falsafa asoslari. Toshkent: Sharq, 2016.
10. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.